



PSYCHOLOGICAL FACTORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITY

Torakulov Bori Norboevich

Chirchik State Pedagogical University

Associate Professor of "Psychology" Department

buri20190312@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14001517>

ARTICLE INFO

Received: 22th October 2024

Accepted: 27th October 2024

Online: 28th October 2024

KEYWORDS

Ability, general and special ability, literary ability, mathematical ability, artistic type, thinking type, middle type, individual style of activity.

ABSTRACT

This article describes the role of human abilities in the educational process, the types of abilities, the formation of individual activity styles of learners in connection with their general and special abilities and interests.

TALABALARNING KREATIV QOBILIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

To'raqulov Bo'ri Norboevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Psixologiya" kafedrasi dotsenti

buri20190312@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14001517>

ARTICLE INFO

Received: 22th October 2024

Accepted: 27th October 2024

Online: 28th October 2024

KEYWORDS

Qobiliyat, umumiy va maxsus qobiliyat, adabiy qobiliyat, matematik qobiliyat, badiiy tip, fikrlovchi tip, o'rta tip, faoliyatining individual uslubi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada insondagi qobiliyatlarning ta'lim jarayonidagi roli, qobiliyatning turlari, ta'lim oluvchilarning individual faoliyat uslubi umumiy va maxsus qobiliyatlari, qiziqishlari bilan bog'liq holda shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Bugungi kunda talim muhitini va ijodiy yondashishning innovatsion psixologik tushunchalarini yoshlar ongiga singdirish dolzarb deb ta'kidlash o'rinli. Insonoy fazilatlar nayob bo'lishining asosiy bir bosqichi bu alloh tomonidan berilgan insonning boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq ko'rinishi va olam ahliga tanilishish doirasida muhim bir hilqat bor bu esa insonning ijodiy qobiliyati bilan bevosita bog'liq deb aytsak adashmagan bo'lamiz.



Tadqiqotlar olib borilishi nuqtay nazaridan olib qaraydigan bo'lsak zamon talabidan kelib chiqib munosabat bildirishimiz asosli deb aytsak ham bo'ladi. Xorijlik tadqiqotchi izlanuvchilar ham qobiliyat haqida bir qancha ma'lumotlarni asos sifatida ko'rsatib o'tganlar. O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik va psixologik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik va psixologik kreativlik mazmuni yoritib berilgan. Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar(mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan, Uzbekistan 406 www.ares.uz erkin ta'lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy psixologiya tizimining muhim vazifalaridan biri talabalarning nafaqat kasbiy salohiyatini, balki uning shaxsini har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir.

Kreativlik shaxsning yangi tushunchalarni yaratish va yangi ko'nikmalarni shakllantirish xususiyatlarini aks ettiruvchi qobiliyatiga, ya'ni ijodiy qobiliyatga asoslanadi. Bu kontsepsiya intellektdan ajralmas tarzda o'rganiladi va shaxsning ijodiy yutuqlari bilan bog'liq (Feist, 2010; Wells & Dickens, 2020). Ijodkorlik asosiy motivatsiya, ongli va ko'rsatilgan qiziqish, faol va mustaqil pozitsiya, sog'lom raqobat, mehnatsevarlik va qat'iyat bilan ta'minlanadi. Bu safarbarlik, axborot, rivojlanayotgan, orientatsiya ko'nikmalarini, g'oyalarni yaratish qobiliyatini, texnik zukkolikni hisobga oladi. Ijodiy potentsialni shakllantirish jarayoni qidiruv apparatini shakllantirish va insonning umumiy ehtiyojlarini qondirish uchun ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq.

Komponent sifatida ijodkorlik uning o'zini o'zi boshqarish tizimining bir qismidir. Shu munosabat bilan, inson kreativligi deganda, uning ijodiy faoliyatining ichki asosi sifatida yuzaga keladigan shaxsning ajralmas mulki tushuniladi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar munosabati bilan yuqori malakali ijodiy mutaxassislarga ehtiyoj sezilmoqda. Kelajakdagi kasbga tayyorlash tizimini tubdan o'zgartirish haqida savol tug'iladi, bu esa kundalik hayot muammolariga e'tibor qaratish va kelajakda ularni samarali hal qilishni ta'minlashi kerak. Talabalarning ta'lim faoliyatini tashkil etish muammosi dolzarb hisoblanadi, chunki zamonaviy oliy ta'lim tizimining yetakchi maqsadi o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun jamiyat manfaatlaridan maksimal darajada foydalana oladigan, samarali va insonparvar bo'la oladigan yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishdir. Kasbiy rivojlanish jarayonida talaba nafaqat maxsus fanlar bo'yicha bilim olishi nazarda tutilgan bo'lsada innovatsion rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarini ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan kadrlar salohiyati va muhim bosqichlarni amalga oshiradigan kelajak vorislarga davr talabi nuqtay nazaridan yetqazish o'rinli bo'lishini ta'kidlab o'tish asos sifatida qabul qilinadi. Demak qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaf-faqiyatli amalga oshirish sharti



hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo'ladigan individual - psixologik xususiyatdir.

Agar shaxsning ma'lum sifatleri yig'indisi odamning pedagogik va psixologik jihatdan asoslab berilgan vaqt oraliq'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agarda boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bunday odam kerakli ko'nikma va bilimlarni umumiy egallab olmaydi degan xulosaga bo'rilmaydi. Bularni egallash jarayoni chuzilib ketadi, pedagog va psixologdan kup kuch va vaqt sarflashni talab qiladi. Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir-birlari bilan bog'liqdir.

Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarining o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namayon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, engil va mustahkam amalga oshirishingizda namayon bo'ladi. Xuddi shu erda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi. Shu munosabat bilan olib aytganda jaxon hamjamiyatining globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta'lim oluvchilar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetentsiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.
2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lim oluvchilardagi tadqiqot-chilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.



3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning uzidan ancha uzoqdir.

Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zur mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar shubhasiz mehnat orqali olamga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar. Haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida namayon bo'lishidir. Qobiliyatning o'zi nima? Uning psixologik mohiyati va yuksaltiruvchi omillari nimalardan iborat? – kabi savollarga to'g'ri javob berishning nazariy va amaliy ahamiyati juda katta. Qobiliyat shaxs xususiyatlarining shunday yig'indisidirki, u odamning biror faoliyatga o'rgatish va uni takomillashtirishning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. «Ishchi kuchi yoki har qanday mehnatga qobiliyat mavjud bo'lishi kera deb yozadi K.K.Platonov, – organizmda odamning jonli shaxsi egalik quluvchi hamda u tomondan doimo biror iste'mol qiymatini yaratishda ishga tushiriladigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar yig'indisini tushunamiz».

Qobiliyat xuddi xarakter singari shaxsning boshqa tuzilishlari bilan bir qatorda qo'yilgan mustaqil bo'lmay, balki uning turli xususiyatlarining ma'lum yig'indisidir. Ifodalangan darajasi turlicha bo'lsa-da, barcha odamlarga xos bo'lgan sodda, umumiy qobiliyatlar bu psixik ko'rinishning asosiy me'yorlari: sezish, idrok qilish, fikr yuritish, kechinma, qarorga kelish va uni amalga oshirish hamda esda qoldirish qobiliyatlaridir.

Barcha odamlarga xos bo'lmagan elementar xususiy qobiliyatlar shaxsning ancha murakkabroq xususiy qobiliyatlari, masalan, ko'z bilan chamalash, musiqaviy qobiliyat, tafakkurning tanqidiyligi, saxiy qalblik, sabotlilik, qat'iylik va shu kabilardir. Murakkab va umumiy qobiliyatlar u yoki bu darajada barcha odamlarga xosdir. Bular umuminsoniy faoliyat turlari: mehnat, o'yin, o'qish, bir-biri bilan munosabatda bo'lish, ma'naviy, axloqiy faoliyatlarga tegishli qobiliyatlardir.

Ayrim xollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (hislat) faoliyatining yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan psixik sifatlar (hislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir. Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik hislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan bevosita bog'liq bo'lishi ham mumkunligini ta'kidlasak maqsadga muvofiq sanaladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.



Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Xotima o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki qobiliyatlar ko'p bo'lishi mumkin lekin bu qobiliyatlarni yuzaga chiqaradigan muhit ham bo'lsa o'rinli hisoblanadi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud.

Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholik (qarang Daho) namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi deyish o'rinli sanalsa kerak.

References:

1. Ананьев Б.Г. Проблемы способности. – Москва: 1992. – 218 с.
2. Xusanova, N. . (2024). FACTORS INFLUENCING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DIFFERENT TEMPERAMENTS. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 17–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37667>
3. Amangeldiyev, S. . (2024). THE IMPORTANCE OF SOCIAL ACTIVITY IN OLD AGE: A KEY FACTOR FOR PSYCHOLOGICAL WELL-BEING. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 12–16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37666>
4. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 7, сс. 38–40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
5. Abduqodirova, & Pardaboyeva, M. (2024). THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS' DECISION-MAKING. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(7), 27–30. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13819583> <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/2371>
6. Тожибоев Марат Нормадович ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ // SAI. 2023. №Special Issue 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarning-pedagogik-tafakkurini-rivozhlantirishga-innovatsion-yondashuv>
7. Zilola Dilmurodova. (2024). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 27, 1–4. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1092>



8. Абдусаматова Шахло Саитмуратовна. (2024). РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ. *IMRAS*, 7(7), 39–43. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1664>
9. Ozodqulov, O. (2024). VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. В *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH* (Т. 2, Выпуск 10, сс. 37–41). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13945058>
10. Zukhra Mirzotilloevna Radjabova. (2023). Features Of Adolescent And Teacher Cooperation In The Current Period In Choosing A Profession. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 210–215. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/131>
11. Dilmurodova, Z. . (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI VA XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHI. Международная конференция академических наук, 3(6), 66–72. извлечено от <https://econferences.ru/index.php/icas/article/view/17523>
12. Dilfuza Uchkunovna Rakhmanova. (2024). INTRODUCTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO PSYCHOLOGY. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(9), 116–121. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1820>
13. Dustnazar Omonovich Ximmataliyev, Sayyora Rustamovna Mirzaeva, Kibriyo Ergashevna Buriyeva, Mutabar Sayfullayevna Meyliyeva, Aliya Burxonovna Burteshova, Shohida Absalomovna Umarova, & Marat Normadovich Tojiboyev. (2024). Psychological Foundations of Career Guidance in the Family and Children of the Orphanage. *Journal of Computational Analysis and Applications (JoCAAA)*, 33(07), 547–551. Retrieved from <http://eudoxuspress.com/index.php/pub/article/view/1096>